

**«SMART BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATI**  
**YAGONA AKSIYADORINING**  
**QARORIDAN KO‘CHIRMA**

2024 yil «29» mart

№ 03/1

Toshkent sh.

**Bank Ustaviga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida**

...  
...  
...

O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligida 2024 yil 14 mart kuni R0967-3-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Smart bank” aksiyadorlik jamiyatining “Qo‘srimcha aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risida”gi qaroriga asosan bank tomonidan nominal qiymati 1 000 (Bir ming) so‘m bo‘lgan 150 000 000 (Bir yuz ellik million) dona umumiyligi 150 000 000 000 (Bir yuz ellik milliard) so‘mlik egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalar chiqarilgan va belgilangan tartibda Yagona aksiyadorga joylashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq jamiyatning ustav kapitalini ko‘paytirish joylashtirilgan qo‘srimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Bunda jamiyat ustavida ko‘rsatilgan, e’lon qilingan muayyan turdagisi aksiyalarning soni ushbu turdagisi joylashtirilgan qo‘srimcha aksiyalarning soniga kamaytirilishi kerakligi belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq jamiyatning barcha oddiy aksiyalar bitta aksiyadorga tegishli bo‘lgan jamiyatda aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo‘yicha qarorlar yagona aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinishi hamda yozma shaklda rasmiylashtirilishi lozimligi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi va “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunlari, “Smart bank” aksiyadorlik jamiyatni Ustavi va “Smart bank” aksiyadorlik jamiyatni Yagona aksiyadori to‘g‘risidagi nizom” talablaridan kelib chiqib, Yagona aksiyador

**qaror qiladi:**

1. Bankning Ustaviga kiritilgan o‘zgartirish matni ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Bankning Ustaviga kiritilgan o‘zgartirish matni amaldagi qonunchilikka muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ro‘yxatdan o‘tkazilsin.
3. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash bank Boshqaruvi zimmasiga hamda ijrosi

yuzasidan nazorat Kuzatuv kengashiga zimmasiga yuklatilsin.

**Yagona aksiyador nomidan,**

“Leader Finance” MCHJ

Bosh direktori v.b.:

/imzo, muhr/

J.Xaydarov

*Ko ‘chirma asligi to ‘g ‘ri:*

*T.Nurmuratov*

